



ALLOMA UBAYDULLOH IBN MAS'UDNING "AL-VISHOH" ASARI VA UNING BALOG'AT ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Almardanov Dilmurod Eshmurod o'g'li

Oriental universiteti

Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

dilmurodansoriy@gmail.com

ANNOTATSIYA Maqolada buxorolik mashhur alloma Ubaydulloh Ibn Mas'ud hayoti va uning "Al-Vishoh" asari haqida hamda allomaning balog'at ilmiga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "Al-Vishoh" asari, hazf, zikr, maoniy, sarf va nahv, qiyoslash, so'zma-so'z tarjima, balog'at ilmi

ABSTRACT The article contains detailed information about the life of the famous scientist Ubaydullah ibn Masud from Bukhara and his work "Al-Wishah", as well as the scientist's great contribution to the science of balogat.

Key words: The work "Al-Vishah", hazf, dhikr, maoniy, sarf and nakhv, comparison, literal translation, science of balogat.

KIRISH

Buxorolik alloma Sadrush-shari'a Ubaydulloh ibn Mas'ud Mahbubiyilar sulolasining buyuk vakilidir. Allomaning to'liq ismi Ubaydulloh ibn Mas'ud Sadrush sharia asg'or ibn Mas'ud ibn Tojush-sharia Mahmud ibn Jamoliddin Ubaydulloh Mahbubiy Buxoriydir. Katta Sadrush sharia, Tojush sharia va kichik Sadrush sharia kabi unvonlarning sohibi Ubaydulloh ibn Mas'ud (vaf.747/1346) va uning bobolari islom olamida nom qozongan allomalardan bo'lgan. Madrasalarda ulardan qolgan ilmiy meros hozirgacha talabalarga fiqh ilmidan darslik sifatida o'qitiladi.

«Sodrush shariy'a al-Asg'ar» «kichik Sodrush shariy'a» deganidir. U kishining katta bobosining laqabi ham Sodrush shariy'a bo'lganligi nasablaridan ko'rinib turibdi. Shuning uchun, katta bobo «Sodrush shariy'a al-Akbar» – «Katta Sodrush shari'a», nabira esa «Sodrush shariy'a al-Asg'ar» – «Kichik Sodrush shari'a» deb atalgan. Ba'zi manbalarda ikkovlarini «Sodrush shari'a birinchi» va «Sodrush shari'a ikkinchi» deb ham farqlaganlar¹.

Ammo Sodrush shariy'a laqabi asosan Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Buxoriy (r.a.)ga nisbatan ishlatilgan. Imom Sodrush shariy'a Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Buxoriy (r.a.) Buxoro shahrida, ilmu ma'rifat bulog'i bo'lgan, o'z bag'rida yetuk faqih ulamolarni tarbiya etgan oilada tavallud topdi.

Bobolari imom Tojush shariy'a Mahmud ibn Sodrush shariy'aning tarbiyasi natijasida mashhur alloma bo'lib yetishdi. O'sha davrda Buxoroda hukm surgan tahlikali vaziyat Sodrush shari'a oilasini Xuroson tomonga, ya'ni Kirmon shahriga ko'chib kelishga majbur qildi. Ubaydulloh ibn Mas'ud u yerda bobosi qo'lida ta'lim va tahsilni davom ettiradi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra bobolari Kirmon shahrida vafot etgan. Keyinchalik u zot Kirmonni tashlab, o'sha davrda Xurosonning yirik markazlaridan biri bo'lmish Hirot shahriga keladi va ilmiy faoliyatini shu yerda davom ettiradi. U kishinig qalbi doimo ona vatan Buxoroga qaytish ilinjida bo'lgan.

Ubaydulloh ibn Mas'ud rohmatallohi alayhining nasabi ulug' sahobiy Uboda ibn Somit (r.a.)ga borib taqaladi. U kishiga "Ubodiy" nisbasining berilishi ham shu sababdandir. "Mahbubiy" nisbasi ham bobolaridan biriga borib taqaladi.

U zotning ustozlari silsilasi quyidagicha:

1. Shayxul imom muftiy Imomzoda
2. Imomiddin Zaranjariy.
3. Bakr ibn Muhammad Zaranjariy.
4. Imom Saraxsiy.

عبد الحى الكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. - بيروت - ص 186¹

5. Imom Halvoni.
6. Abu Ali Nasafiy.
7. Abu Bakr Muhammad ibn Fazl.
8. Abdulloh ibn Abu Hafs Sag'ir.
9. Abu Hafs Kabir.
10. Imom Muhammad.
11. Imom Abu Hanifa r.a.²

Allomaning ta'lim berishdagi o'ziga xos uslubi shunday bo'lganki, toliblar masalaning tub mohiyatini anglab yetishi uchun o'ta daqiqlik bilan ilgari hech kim payqamagan nozik nuqtasigacha tushuntirgan. U zotning fanga hassosligi tasnif etgan risola va sharhlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Allomaning "Sharhul Viqoya" va uning qisqartirilgan shakldagi "Nuqoya" kitobi, "Tanqihul usul" va unga yozilgan "Tavzih" nomli sharhi katta e'tibor qozongan va ilmiy ahamiyat kasb etgan.

Ubaydulloh ibn Mas'ud mo'g'ullar Movarounnahrni bosib olib, talon-taroj va xarob qilgan davrda yashab ijod qilgan. 1219 yilda Chingizxon Buxoroni zabt etib, xarobaga aylantiradi. Ibn Battuta bu voqea haqida bunday yozadi: "Buxoro – muhaddislar imomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning vatani. Bu shahar Chingiz vayron qilgan Jayhun (Amudaryo) ortidagi yurtlarning poytaxti edi. U yerdagi masjid, madrasa va bozorlarning aksariyati vayronaga aylandi. Aholisi esa nochor ahvolda qoldi..."³.

Fiqh ilmida yuksak maqomdagi asarlar ta'lif etgan Sadrush sharialar silsilasini Buxoroning allomalari qatorida zikr etish mumkin. Zamonasining mashhur huquqshunos olimi Sadrush sharia – Ahmad ibn Jamoliddin Ubaydulloh Mahbubiy Buxoriy bo'lib, u XIII asrda yashab ijod etgan va muhim fiqhiy asarlar, jumladan, "Hidoya"ga yozilgan sharhlardan birining muallifi sifatida tanilgan. Uning o'g'li Tojush sharia unvoni bilan shuhrat qozongan Mahmud ibn Sardush sharia ham otasi

² عبد الحي اللكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. - بيروت - ص 185

³ Ibn Battuta. Sayohatnoma – T.:Sharq, 2012.- B.246

singari islom huquqi bo'yicha hanafiy mazhabida unutilmas ilmiy asarlar qoldirgan. Tojush sharia nabirasi (Sadrush sharia soniy, ya'ni ikkinchi yoki kichik Sadrush sharia)ni islom huquqshunosligi ilmida yetuk qilib tarbiyalaydi. Fiqhiy ilmni uning qalbiga singdirish maqsadida Burhonuddin Marg'inoniyning shoh asari – "Hidoya"ning eng asosiy masalalarini qisqa jumalarda tartiblaydi (boshqa bir manbada "ijodiy shaklda jamlab" deyilgan) va uni "Viqoyatur rivoya fi masoilil Hidoya" ("Hidoya masalalarida rivoyatlarni saqlash") deb ataydi.

Asar "Hidoya"ning eng yaxshi va qulay qisqartmasi sifatida e'tibor qozonib, asrlar davomida o'qilib, sharhlanib kelgan va uni izohlash uchun ko'plab xoshiyalar yozilgan.

Kichik yoki ikkinchi Sadrush sharia unvoni bilan mashhur Ubaydulloh ibn Mas'ud bu oilaning faxri va hanafiylik fiqhining so'nmas yulduzidir. U bobosi Tojush sharianing tarbiyasida kamol topib, Sharq hikmati (falsafasi), kalom ilmi va tabiatga doir fanlarni o'zlashtirib, fiqh ilmida buyuk alloma sifatida taniladi va hanafiy mazhabining atoqli va sarmahsul olimlaridan biri bo'lib yetishadi. Ajdodlaridan qolgan ilmiy asarlarni jamlab, nafis yodgorliklarni to'plash bilan shug'ullanadi va bobosi yozgan "Viqoyatur rivoya"ni arab tilida sharhlab, qayta tavzih etib, "Sharhul viqoya" kitobini yozadi. Bu asar hozirgacha madrasalarda darslik sifatida o'qitib kelinayotgan muallifning boshqa bir kitobi "Muxtasarul viqoya" ning eng to'liq va ishonchli sharhi hisoblanadi.

Ubaydulloh ibn Mas'udning fikri teran va so'zi o'tkir bo'lgani bois har qanday olim ham u bilan ilmiy bahs va munozara olib borishga jur'at qila olmagan. U har bir masalaga shar'iy dalillar va raddiyalarni kerakli o'rinlarda daqiq tarzda yetkazib bera olgan. Toshko'prilizodadan hikoya qilinadi: "Alloma Qutbiddin Roziy Sadrush sharia bilan ilmiy munozara qilmoq istagida shogirdlaridan biri mavlono Muborakshohni u kishining huzuriga yuboradi. Sadrush sharia u vaqtda Hirotda edi. Muborakshoh allomani Ibn Sinoning "Ishorot" kitobidan talabalarga dars o'tib turgan holida uchratadi. Muborakshoh dars jarayonida Sadrush sharianing kitob musannifi Ibn Sino va uning shorihi Muhammad Tusiya ergashmay, kuchli va

yorqin dalillar bilan raddiya berayotganini ko‘rib aqli shoshadi va ustozi Qutbiddin Roziyga bunday maktub yo‘llaydi: “Bu kishi “norun vaqqodun”, ya’ni “yondiruvchi olov”dir. U kishi bilan munozara qilishingiz sizga malomat olib kelishi mumkin. Alloma o‘z fikri va ijtihodi ila ish ko‘rar ekan...”⁴. Shu bilan alloma Roziy shogirdining e‘tirofini qabul etib, maqsadidan qaytadi.

Abdulhay Laknaviy “Favoid” asarida: “Sadrush sharia tasnif etgan kitoblarning barchasi ulamolar nazdida maqbul, fuqaholar nazdida e‘tiborga sazovor”, deb e‘tirof etgan⁵.

Ubaydulloh ibn Mas‘ud qalamiga mansub mo‘tabar asarlar:

1. “Tanqihul usul”. Hanafiylik usuli fiqhiga oid bo‘lib, ahli ilm orasida “Tanqih” nomi bilan mashhur.
2. “Tavzih alat Tanqih”. “Tanqih”ning matniga yozilgan sharh bo‘lib, musannif unda boshqa usul kitoblarida uchramaydigan daqiq masalalarni yoritgan.
3. “Muqaddamatul arba”. Bu ham “Tavzih” masalasini o‘z ichiga oladi va unda usulda mushkul sanalgan masalalar bayon etiladi.
4. “Sharhul viqoya”. Hanafiy mazhabi fiqhining mufassal manbalaridan biri.
5. “Muxtasarul viqoya”. Boshqa bir nomi “Niqoya” bo‘lgan.
6. “Shurut val mahozir”.
7. “Ta’dilul ulum”.
8. “Sharhul fusulil xomsiyn”.
9. “Vihosh fil maoni val bayon”.
10. “Arba’un hadis”.

U ta’lif etgan asarlar hanafiy mazhabida yozilgan boshqa yirik manbalardan tubdan farq qiladi. Ya’ni, musannifning asar ta’lif etishda o‘ziga xos yo‘nalishi mavjud. Uning asarlarida bildirilgan tanqidiy fikrlar asosli va ishonarli tarzda, o‘quvchi fahmiga tez yetib boradigan uslublar bilan bayon qilingan. Shuning uchun

⁴ Ibn Battuta. Sayohatnoma – T.:Sharq, 2012.- B.279

⁵ عبد الحى الكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. - بيروت - ص 187

ham Buxoro madrasalarida Sadrush sharianing asarlari asosiy darslik sifatida qunt bilan o‘qitilgan. Hozir ham yurtimizdagi madrasalarning ta’lim dasturi fiqh fani bo‘yicha allomaning “Muxtasarul viqoya” asari asosida shakllantirilgan.

Aytib o‘tish joizki, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining manbalar xazinasini fondida movarounnahrlik allomalarning qalamiga mansub ko‘plab asarlarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Jumladan, Ubaydulloh ibn Mas‘ud qalamiga mansub bir nechta asar mavjud bo‘lib, “Sharhul viqoya”ning arab va fors tilidagi qo‘lyozma nusxalari fondning MR 2 (Arab-fors), MR 53 (Arab), MR 225 (Arab), MR 110 (Arab), MR 9 (Arab) raqami ostida saqlanmoqda.

“Al-Vishoh” asari va uning uslubi

“Al-Vishoh” asari balog‘at ilmining maoniy va bayon qismiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada muhim manba hisoblanadi. Muallif ilmi bade’ni balog‘at ilmiga oid ilmlardan deb hisoblamagan. Uning nazdida balog‘at ikki ilmdan iborat: ilmi maoniy va ilmi bayon. Bu haqda muallif quyidagilarni aytadi:

وموضوعه الكلام من حيث يؤدّي إلى تمام المراد ويطابق مقتضى الحال دلالةً وصوغاً الكلام على وجه يراعي هذين المعنيين هو البلاغة⁶

“Balog‘at ilmining mavzusi kalom bo‘lib, faqat har qanday kalom emas, ko‘zlangan maqsadni to‘liq ifodalaydigan hamda gapirilayotgan vaziyatga mos aytilgan kalomdir. Shuningdek bu ikki jihatni saqlagan holda, biror uslub bilan yetkazish ham balog‘at fani mavzusi hisoblanadi. Mana shu ikki ilm (maoniy va bayon) balog‘at ilmlaridir”.

Ilmi bade’ni muallif bayon ilmining davomi deb bilgan:

علم البديع : هو معرفة طرق تبين الكلام وتزيينه وهذا العلم تتمّة علم البيان⁷

“Ilmi bade’ kalomni turli yo‘llar bilan bezashni o‘rganadigan ilmdir. Va bu ilm bayon ilmining nihoyasidir”.

Hozirda fondlarda bu asarning ikki qo‘lyozmasi fanga ma’lum:

⁶ Ubaydulloh ibn Mas‘ud. al-Vishoh. Ilm Kapisi Yayincilik: Baski,-Istanbul, 2020.B-80

⁷ Ubaydulloh ibn Mas‘ud. al-Vishoh. Ilm Kapisi Yayincilik: Baski,-Istanbul, 2020.-B-85

1. Beruniy nomli Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida 3186 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Xattot Mahmud Nizomiy tomonidan 737 hijriy yilda nasx xatida ko'chirilgan. 48 varaqdan iborat, 13 qator qilib ko'chirilgan. Bu nusxa eng qadimiysi bo'lib, muallif davrida ko'chirilgan.
2. Nur Usmoniyya maktabasida 4479 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Bu nusxa ham 48 varaqdan iborat bo'lib, 10 qator. Nasx xatida ko'chirilgan. Qachon va kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum.

Asarning uslubi xuddi "Muxtasari viqoya" kabi juda qisqa va iboralari siqiq hisoblanadi. Qoidalarni tushuntirishda laf va nashr uslubidan foydalanilgan. Ya'ni oldin qoida keltirilib, so'ng har bir qoidaga tartib bilan misol berilgan.

"Al-Vishoh" asari Imom Sakkokiyning "Miftohul-ulum" va Faxriddin ar-Roziyni "Nihoyatul-e'joz" asarlarining xulosasi hisoblanadi. Bu haqda muallifning o'zi shunday deydi:

وإنّ كتاب "مفتاح العلوم" كتابٌ وُشِّحَ جيّدُ المعاني بأوشحة حسن عبارته ورُشِّحَ زهرات رياض
البيان برشحات لطف استعاراته فلما وُفِّقَتْ بكشف حقائقه ووقفت على أسرارهِ ودقائقه جمعت زبدة أبحاثه مع
مباحث "نهاية الإعجاز" ⁸

"Miftohul-ulum" kitobi maoniy ilmi bo'yniga o'zining go'zal iboralari bilan marjon taqqan va bayon bog'ining gullarini nozik istioralari bilan undirgan kitobdir. Uning daqiq sirlari va haqiqatlari menga kashf bo'lgach, undagi bahslarning qaymog'ini jamladim. Shu bilan birga "Nihoyatul-e'joz" kitobidagi ilmiy bahslarni ham kiritdim".

Muallif asarda qoidalarni yoritishda mantiqiy qoidalardan ham foydalangan:

ضابط : المفهوم الشخصي يسند إليه ولا يسند به والكلي يسند إليه وبه⁹

"Qoida: mafhumi shaxsiy gapda musnad ilayhi bo'la oladi, musnad bo'la olmaydi. Mafhumi kulliy esa musnad ilayhi ham musnad ham bo'la oladi".

⁸ O'sha asar.B-25

⁹ Ubaydulloh ibn Mas'ud. al-Vishoh. Ilm Kapisi Yayincilik: Baski,-Istanbul, 2020 – B.49.

Mafhumi shaxsiy – bu uning ma’nosi sheriklikni man’ qiluvchi mafhumdir. Masalan Zayd kabi.¹⁰ Bu turdagi mafhum atoqli ot bo’ladi. Chunki bir ismda faqat bitta shaxs bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham mafhumi shaxsiy deyiladi. Kuliy esa uning ma’nosi sherillikni man’ qilmagan mafhumdir. Masalan, inson so’zi. Insonlikda juda ko’p birliklar jamlanadi: Zayd, Bakr, Amr va hokozo. Demak, ma’nosi yakka bir birlikka cheklangan atoqli otlar gapda ega bo’la oladi, lekin kesim bo’la olmaydi. Kuliy lafzlar esa ega ham kesim ham bo’la oladi. Misollar:

زيد عالم Zayd olimdir.

الإنسان ذو علم inson ilmlidir.

هذا إنسان bu insondir.

Chunki qoida bo’yicha musnad musnad ilayhidan ko’ra umumiyroq va keng qamrovli yoki teng bo’lishi kerak. Masalan:

الإنسان حيوان desak, musnad bo’lib kelayotgan so’z حيوان so’zi musnad ilayhi (inson) dan keng qamrovli. Xuddi shu jumlani teskarisiga tuzsak, musnad musnad ilayhidan ko’ra tor doirada bo’lib qoladi:

الحيوان إنسان bu jumlada musnad bo’lib kelayotgan so’z inson so’zi musnad ilayhi, ya’ni hayvondan keng qamrovli ham emas, teng ham emas. Shunga ishora qilib muallif quyidagilarni aytadi:

فإذا قيل : المنطلق زيد فلا بدّ ان يكون المسند وهو زيد إمّا أعمّ أو مساوياً فينحصر الانطلاق فيه¹¹

“Agar “Ketayotgan Zayddir” deyilsa, bu jumlada Zayd so’zi mafhumi shaxsiy bo’lishiga qaramasdan musnad bo’ladi. Bu ikkalasi teng yoki Zayd umumiy bo’lish sharti bilandir. Shuning uchun “ketish” fe’li faqat Zayddagina cheklanadi”.

Ya’ni bunda musnad musnad ilayhidan tor doirada bo’lib qoldi. Zayd – aynan bir kishi, ketuvchilik – har qanday insonga ham to’g’ri kelaveradi. Aslida bu kabi jumla xato hisoblanadi. Uni to’g’irlash uchun musnad va musnad ilayhini tenglashtiramiz, ya’ni ketuvchilik faqat Zaydga xos deb qaraladi.

¹⁰ تيسير المنطق حضرت مولانا عبد الله صاحب كنهوي

Alloma asarda faqat balog‘at ilmiga doir masalalarni emas, balki daqiq nahviy qoidalarni va undan kelib chiqadigan balog‘iy ma’nolarni ham tushuntiradi.

Jumladan:

ضابط : أبو زيد منطلق الإضافة هنا لتعريف الأب والأب هو المقصود بالحكم وزيد أبوه منطلق الإضافة
للتخصيص وزيد هو المحكوم عليه بانطلاق أبيه فإذا قيل : أبو زيد يشرب الخمر المذممة للأب وزيد أبوه
يشرب الخمر المذممة لزيد وكذا الفرق بين : طاب زيد أباً و طاب أبو زيد¹²

“Qoida: Zaydning otasi ketyapti desak, bu yerda izofa “ota” so‘zini aniqlab kelyotgan bo‘ladi va asosiy hukm Zaydning otasi hisoblanadi. Agar Zayd uning otasi ketyapti, desak bu yerda izofa xoslash uchundir, aniqlik uchun emas. Shuningdek bu jumlada asosiy hukm Zayd hisoblanadi. “Zaydning otasi mast qiluvchi ichimlik ichmoqda” desak, faqat ota qoralangan bo‘ladi. Agar “Zayd uning otasi mast qiluvchi ichimlik ichyapti” desak, Zayd asosiy hukmga o‘tib u ham qoralangan hisoblanadi. Shuningdek “Zaydning otasi yaxshilandi” desak, faqat otani maqtagan bolamiz, Zayd maqtov doirasiga kirmaydi. “Zayd uning otasi yaxshilandi” desak, Zaydni maqtayotgan bo‘lamiz”.

Xulosa qilib shularni aytishimiz mumkinki, allomaning bu asari juda kam o‘rganilgan asarlar sirasiga kiradi. Fanga ko‘proq fiqh bilan tanilgan Ubaydulloh ibn Mas‘udni bu kitob bizga lingvist va adib sifatida qaytadan tanishtiradi. Haqiqatdan ham buxoro ulamolari o‘rtasida fiqh bo‘yicha eng kuchli ulamolardan hisoblangan alloma nafaqat faqih, balki adib ham bo‘laganini bu asar isbotlaydi. Agar yaxshilab razm solinsa, allomaning eng mashhur asari “Muxtasari viqoya” da ham juda kuchli adabiy saviyani ko‘rishimiz mumkin. Bundan bizning yurtidan chiqqan qadimgi buxoro allomalarining keng qamrovli, qomusiy olim bo‘lganliklarini bilib olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akmalxonov.A.A. Sakkokiyning “Miftahu-l-ulum”asarida nahv va sarf masalalari :Dis...filol.falsafa.dok. – Toshkent, 2020. – 377 b.

¹² Ubaydulloh ibn Mas‘ud. al-Vishoh. Ilm Kapisi Yayincilik: Baski,-Istanbul, 2020. – B. 50.

2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat nashriëti, 1997. I, II jildlar.
3. Ubaydulloh ibn Mas‘ud. al-Vishoh. Ilm Kapisi Yayincilik: Baski, – Istanbul, 2020. – 411 b.
 1. الشيخ مصطفى الغليينى. جامع الدروس العربية. – بيروت: المكتبة العصرية، 1413هـ، 1993م.
 2. محمد محي الدين عبد الحميد. شرح على قطر الندى وبلا الصدى. دارالطلائع. مصر، 1441هـ، 2019م.
 3. يوسف بن أبي بكر بن محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم. بيروت – لبنان.: دار الكتب العلمية، 2007. – 621 ص.
 4. 664 أبي بشر عمر و بن عثمان بن قنبر. كتاب سبويه. الجزء الثالث. – القاهرة.: مكتبة الخانجي، 1992. – ص 664.
 5. الشيخ الإمام كمال الدين أبي البركات عبد الرحمن ابن محمد بن أبي سعيد الأنباري النحوي. الإنصاف في مسائل الخلاف بين النحويين البصريين والكوفيين. دار الطلائع للنشر والتوزيع والتصدير. القاهرة–2005. ص–126
 6. حفني ناصف، محمد دياب، مصطفى طموم، محمد صالح. الدروس النحوية. دار العقيدة. مصر، . الإسكندرية–2007. الصفحة–381
 7. حفني ناصف، محمد دياب، مصطفى طموم، محمد صالح. دروس البلاغة. دار العقيدة. مصر، . الإسكندرية–2007. الصفحة–381
8. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: TIU, 2006.
9. Botirovich A. S. TARJIMASHUNOSLIKDA USLUB MUAMMOSINING O ‘RGANILGANLIGI //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – T. 18. – №. 5. – C. 359-362.